

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

PARDAYEV SULTONMUROD

**DUNYONING TABIIY-ILMIY MANZARASI VA UNING
EVOLYUTSIYASI**

09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Pardayev Sultonmurod

Dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi va uning evolyutsiyasi

Pardayev Sultonmurod

Естественно-научная картина мира и её эволюция.....

Pardayev Sultonmurod

Natural-scientific picture of the world and its evolution.....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

PARDAYEV SULTONMUROD

**DUNYONING TABIIY-ILMIY MANZARASI VA UNING
EVOLYUTSIYASI**

09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fal794 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fs-ik.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shermuxamedova Niginaxon Arslanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Davronov Ziyod
falsafa fanlari doktori, professor.

Niyazimbetov Marat Qudiyarovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc 03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «18» mayda_soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Yoshlar Ittifoqi madaniyat saroyi. Tel.: 246-02-24 faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (75 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «8» mayda tarqatildi.
(2023-yil «8» maydagi 8 raqamli reestr bayonnomasi).

I.S.Saifnazarov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, falsafa fanlari
doktori, professor

G.M.Ruzmatova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, falsafa
fanlari doktori, professor

J.S.Ramatov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, falsafa fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tabiiy-ilmiy bilimlarning ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy barqarorlik, kelajak istiqbollari ta'minlash omili sifatidagi mavqei oshmoqda. Tabiiy-ilmiy bilimlarning imkoniyatlaridan fan tarmoqlari, xususan, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, kimyo alkaloidlari, kimyo polimerlari, muhandislik, biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar sohalarida foydalanilmoqda, ilmiy kashfiyotlarning ko'lami va ularning ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda. Ayni paytda ba'zi mamlakatlarning maxsus laboratoriyalarida tabiiy-ilmiy bilimlardan insoniyat hayotiga tahdid soluvchi biologik va kimyoviy qurollar, giyohvand moddalarning yangi shakllarini yaratishda foydalanish amaliyoti avj olmoqda. Shu bois, energetik taqchillik va ekologik xavfsizlikni bartaraf etish, sog'lom turmush tarzini ta'minlashda xalqaro intellektual elitaning hamkorligiga erishish, tabiiy-ilmiy bilimlardan ijobiy maqsadlarda foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda tabiiy-ilmiy bilimlardan odamlarning kundalik ehtiyojlariga javob sifatida foydalanish jarayonining asosiy bosqichlari, tabiatshunoslik fanlarining genezisi, tabiatshunos olimlarning hayoti va faoliyatining yo'nalishlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Koinotni o'rganish, o'zga sayyoralarda insoniyatning yashashi uchun sharoit yaratish, dunyoda tinchlikni saqlashda tabiiy-ilmiy kashfiyot va ixtirolardan foydalanishga oqilona tizimli yondashuvni shakllantirish, jamiyatning kelajagini asrash yo'lida tabiiy-ilmiy soha vakillarining ilmiy dialogiga ehtiyoj oshmoqda.

O'zbekistonda jamiyatning barcha sohalarida barqaror taraqqiyotga erishish omili sifatida tabiiy-ilmiy bilimlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlari faoliyatini takomillashtirish, quyosh va shamol energiyasi resurslaridan foydalanish, yangi neft va gaz konlarini izlab topish, farmatsevtika va tibbiyot sohalarini rivojlantirish, kashfiyot va ixtirolardan mamlakat ravnaqi yo'lida foydalanish mamlakat farovonligini ta'minlash omili sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2028-yilda ikki blokli atom elektrostansiyasining qurilishi va foydalanishga topshirilishi O'zbekistonning yuqori ilmiy salohiyatidan dalolat bermoqda, shu bois ilmiy tadqiqot institutlari faoliyati tabiiy-ilmiy bilimlardan foydalanish jarayonini takomillashtirish uchun xalqaro hamkorlik imkoniyatini kengaytirishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2019-yil 29-oktyabrdagi O'RQ-576-son «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»¹gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»², 2022-yil 28 - yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2019 йил 29 октябрыдаги ЎРҚ-576-сон “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги Қонуни. <https://lex.uz/docs/4571490>.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрыдаги ПФ-6097-сон “Илм-фanni 2030 йилгача ривожлантириш концепсиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/docs/5073447>.

taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»³gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»⁴, 2018-yil 12-oktyabrdagi PQ-3968-son «O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»⁵, 2019-yil 4-sentyabrdagi PQ-4436-son «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»⁶, 2020-yil 10-apreldagi PQ-4668-son «O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»⁷gi qarorlari va ushbu mavzuga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi haqidagi tasavvurlar insoniyatning ijodiy tafakkuri mahsuli bo'lib, dunyoni mifologik bilishdan ilmiy bilimga o'tish imkoniyati sifatida turli davr mutafakkirlari ijodida asoslangan. Xususan, qadimgi misrliklarning «Marhumlar kitobi», hindlarning muqaddas «Vedalar»i, xitoyliklarning «Dao de-sizen», yaponlarning «Kodziki» va «Nihongi», Arximedning «Yondiruvchi ko'zgular», Aristotelning «Metafizika»⁸, Platonning «Davlat»⁹ asarida, Gesiodning «Ishlar va kunlar»¹⁰, Gomerning «Odisseya» dostonlari, Demokritning atomistik¹¹ ta'limotlarida, zardo'shtiylikning «Avesto»¹² muqaddas kitobida dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasiga oid dastlabki tasavvurlar bayon qilingan. Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy¹³, Abu Ali ibn Sino¹⁴, Ahmad al-Farg'oniy¹⁵, Abu Bakr ar-

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. <https://lex.uz/ru/docs/3211987>.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 октябрдаги ПҚ-3968-сон “Ўзбекистон Республикасида халқ табobati соҳасини тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. <https://lex.uz/docs/3977598>.

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 сентябрдаги ПҚ-4436-сон “Диний-маърифий соҳа фаолиятини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. <https://lex.uz/ru/docs/4500897>.

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 апрелдаги ПҚ-4668-сон “Ўзбекистон Республикасида халқ табобатини ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. <https://lex.uz/docs/4785739>.

⁸ Аристотель. Сочинения. В 4-х т. Т. 3: Перевод / Вступ. статья и примеч. И. Д. Рожанский. – М.: Мысль, 1981. – С.533.

⁹ Платон. Государство // Платон. Собрание сочинений в 4-х т. Т. 4. Законы. М.: Мысль, 1994. – 454 с.

¹⁰ Вересаев В. В. Перевод. Гесиод. «Труды и дни». – М.: Ладомир, 1999. – 234 с.

¹¹ Виц Б.Б. Демокрит. – М.: Мысль, 1979. – С.13.

¹² Авесто: Яшт китоби. / М. Исхоқов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.153.

¹³ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1993. – Б.124 -130.

Roziy¹⁶, Jaloliddin Rumiy¹⁷ ijodida olamning yaralishi panteizm nuqtai nazardan asoslangan. Ibn Sinoning «Tib qonunlari» kitobida tabiatdagi dorivor o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari va fasllarda uchraydigan turli xil kasalliklarning sabablari asoslangan. O'rta asrlarda G'arbda tabiiy-ilmiy bilimlar tabiiy jodugarlik sifatida inkor etilgan bo'lsa, Uyg'onish va Yangi davrda, xususan, I.Kant¹⁸ koinotning kelib chiqishini fizik jihatlarini asoslagan.

MDHda dunyoni tabiiy-ilmiy manzarasining ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlarini XX asrda ijod qilgan rossiyalik A.Losev¹⁹, A.Chanishev²⁰, A.Gorelov²¹, V.Sokolov²², Y.Kravchenko²³, V.Asmus²⁴, B.Polikarpov²⁵, V.Naydish²⁶, S.Smirnov²⁷ kabi olimlarning asarlarida ochib berilgan. Jumladan, V.Asmusning «Antik davr falsafasi» kitobida dunyoni tabiiy-ilmiy manzarasining fundamental xususiyatlari, Qozog'iston olimlari A.Masalimova, T.Gabitov, A.Kurmangaliyeva qarashlarida tabiiy-ilmiy bilimlar diniy ta'limotlar nuqtai nazaridan asoslangan. Tojikistonlik olimlar M.Dinarshoyev, M.Rahimov, N.Maxmadizoda Sharq mutafakkirlari ijodidagi tabiiy-ilmiy bilimlarning bilish jarayonlariga ta'sirini yoritib bergan.

O'zbekistonning faylasuf olimi O.Fayzullayev tahriri ostida mualliflar jamoasining «Markaziy Osiyoning mumtoz falsafasi va zamonaviy fan»²⁸ nomli monografiyasida tabiiy-ilmiy bilimlarning genezisi, B.To'rayev makon va vaqtning fizik va falsafiy jihatlarini²⁹ni, Sh.Ko'shaqov kvant mexanikasining ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati³⁰ni, N.Shermuxamedova «Tabiatshunoslik falsafasi» kitobida dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini ilmiy va falsafiy xususiyatlarini, «Falsafa va fan metodologiyasi» kitobida ilmiy va noilmiy bilimning mutanosibli³¹ni, D.Bozorov sinergetik paradigma³²ning dunyoni tabiiy-ilmiy

¹⁴ Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1983. – Б.38-44.

¹⁵ Аҳмад ал-Фарғоний. Астрономические трактаты. – Ташкент: Фан, 1998. – С.49.

¹⁶ Абу Бакр Розий ва унинг шогирдлари ёзиб қолдирган касалликлар тарихи. Кириш, таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар Ҳ.Ҳикматуллаев. – Тошкент: Фан, 1974. – Б.19-33.

¹⁷ Жалолиддин Румий. Маънавий маснавий. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б.368.

¹⁸ Кант И. Критика чистого разума. – М.: Наука, 2007. – С.1123.

¹⁹ Лосев А.Ф. Двенадцать тезисов об античной культуре // Студенческий меридиан. – М.: Наука, 1983. – С. 9-10.

²⁰ Чанышев А. Античная литература Греции. Антология. Ч. 1. – М.: Наука, 1989. – С. 71.

²¹ Горелов А.А. Концепция современного естествознания. – М.: Библиотека, 2006. – С. 23.

²² Соколов В.В., Кедров Б.М., Дынник М.А., Кесседи Ф.Х., Нарский И.С., Асмус В.Ф., Луканин Р.К., Джохадзе Д.В., Габитова Р.М., Долгов К.М., Михаленко Ю.П. История античной диалектики. – М.: Мысль, 1972. – С. 37.

²³ Кравченко Ю.П. Взаимоотношения человека и природы в период от эпохи Античности до эпохи Возрождения // Философия и культура. – М.: Мысль, 2014. – С. 195.

²⁴ Асмус В.Ф. История античной философии. – М.: Наука, 1965. – С. 66.

²⁵ Поликарпов В.С. Эстетика, язык, общество // Философские науки. – М.: Наука, 1984. – С. 139.

²⁶ Найдыш В.М. Мифология / Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – С. 23.

²⁷ Смирнов С.В. Естественнонаучная картина мира: краткий курс лекций. – Елабуга: Изд-во филиала КФУ в г. Елабуга, 2015. – 112 с.

²⁸ Файзуллаев О. Классическая наука Центральной Азии и современная мировая наука. – Тошкент: Фан, 2001. – 457 с.

²⁹ Тўраев Б.О. Борлик: моҳияти, шакллари, хусусияти. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2011. – Б. 5.

³⁰ Қўшақов Ш.С. Табиатшunoslik фалсафаси. – Самарқанд: СамДУ, 2004. – Б. 168.

³¹ Шермухамедова Н.А. Табиатшunoslik фалсафаси. – Тошкент: Ношир, 2017. – Б. 46.

³² Бозоров Д. Синергетик парадигма. – Тошкент: Тафаккур, 2009. – Б. 14.

manzarasining shakllanish va rivojlanishidagi ahamiyati³³ni, tabiatshunos olimlar M.Valixanov biotexnologiyalarning ekologik muammolarni bartaraf etish vositasi sifatidagi o‘rni³⁴, D.Yormatova tabiiy-ilmiy bilimlarning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi roli³⁵, Z.Davronov zamonaviy ilmiy tadqiqot usullarini takomillashtirishning dunyo tabiiy-ilmiy manzarasini bilishdagi ahamiyati³⁶ni, S.Mustafoev va O‘.Axmedovlar zamonaviy tabiiy bilimlarning yo‘nalishlari³⁷ni ochib bergan. M.H.Ergashova «Avesto» va qadimiy manbalarni tahlil etishda dunyo tabiiy-ilmiy manzarasining ilmiy asoslari³⁸, G.S.Sultonova postnoklassik ilmiy tafakkur tarzida g‘oyaviy vorisiylik va innovatsiya muammolari³⁹, X.I.Toshev germetizm g‘oyalarining shakllanish qonuniyatlari va transformatsiyasining tabiiy-ilmiy bilimlar bilan bog‘liq jihatlari⁴⁰, M.T.Xidirov dunyo ezoterik manzarasining tabiiy-ilmiy bilimlar bilan bog‘liqligi⁴¹ning falsafiy jihatlarini asoslash bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Xullas, olimlar dunyo tabiiy-ilmiy manzarasining falsafiy, fizik, biologik omillar bilan bog‘liqligini asoslaganlar. Ushbu dissertatsiyada dunyo tabiiy-ilmiy manzarasining rivojlanish bosqichlarini ochib berishga va ularning ahamiyatini tadqiq etishga harakat qilingan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Falsafiy innovatsiyalar va novatsiyalarning falsafiy metodologik jihatlari» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tabiiy-ilmiy bilimlar evolyutsiyasining zamonaviy fan taraqqiyotining poydevori sifatidagi ahamiyati va dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasining yo‘nalishlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dunyo haqidagi dastlabki tabiiy-ilmiy bilimlar dinamikasining yo‘nalishlarini asoslash;

dunyo tabiiy-ilmiy manzarasi transformatsiyasining inson tafakkur uslubi o‘zgaruvchanligiga ta’sirini ochib berish;

tabiiy-ilmiy bilimlarning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri va megasivilizatsiyadagi o‘rnini isbotlash;

zamonaviy tabiiy-ilmiy konsepsiyalarning ijobiy va salbiy oqibatlarini asoslash.

³³ Тўраев Б.О. Борлик. – Тошкент: Маънавият, 2009. – 436 б.

³⁴ Валиханов М.Н. Табиатшунослик асослари. – Тошкент: Ношир, 2004. – Б. 30.

³⁵ Yormatova D. Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – B. 89-99.

³⁶ Давронов З. Илмий ижодиёт методологияси. – Тошкент: ТМИ, 2004.

³⁷ Mustafoev S.M., Axmedov O‘.A. Tabiiy bilimlarning zamonaviy konsepsiyasi. – Toshkent: Aloqachi, 2010. – B. 36-45.

³⁸ Эргашова М.Х. Авестодаги фалсафий ғояларга синергетик ёндашув (онтологик ва гносеологик таҳлил) Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дис. автореф. – Тошкент: 2017.

³⁹ Султонова Г.С. Постнотклассик илмий тафаккур тарзида ғоявий ворисийлик ва инновация муаммолари Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дис. автореф. – Самарқанд: 2018.

⁴⁰ Тошев Х.И. Герметизм ғояларининг шаклланиш қонуниятлари ва трансформацияси. Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дис. автореф. – Тошкент: 2019.

⁴¹ Хидиров М.Т. Дунёнинг эзотерик манзараси ва унинг эволюцияси: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2021.

Tadqiqotning obyektini dunyo tabiiy-ilmiy manzarasining evolyutsiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida zamonaviy tabiiy-ilmiy konsepsiyalarning yo‘nalishlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analiz, induksiya, deduksiya, qiyosiy tahlil, sinergetika, dialektika usullari, tarixiylik, mantiqiylik, vorisiylik, tizimlilik, o‘zaro aloqadorlik tamoyillaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mifologik ba diniy ong darajasidagi tabiiy-ilmiy bilimlarning dunyoni bilish va uni anglashning dastlabki usuli sifatida kelajak taraqqiyotini ta’minlashdagi struktraviy, epistemologik, kognitiv jihatlari, inson tafakkuri mahsuli sifatidagi ontologik va gnoseologik ahamiyati asoslangan;

kosmosentrizm g‘oyalarining XX asrda koinot haqidagi fundamental bilimlarning shakllanishiga ta’sirining ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy asoslarini ta’minlash, inson umri va sog‘lig‘ini asrash omili sifatidagi gnoseologik jihatlari ochib berilgan;

dunyoning mumtoz tabiiy-ilmiy manzarasi mahsuli sifatidagi mexanisizmning termodinamik manzara shakllanishiga ta’siri dunyoning super-xolonom manzarasida, ezoterik ba tabiiy-ilmiy bilimlarning metamorfozasi, katta hajmli va tezligi kamroq bo‘lgan kashfiyotlar o‘rniga kichik hajmli va juda tez ishlaydigan mexanizmlarning yaratilishi XXI asrda dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasiga yangicha yo‘nalishda rivojlanayotganligi isbotlangan;

tabiiy-ilmiy bilimlardan nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, farmokologik mahsulotlarni yaratish, ekologik inqiroz, oziq-ovqat ba energiyaning tanqisligini bartaraf etish, ijtimoiy taraqqiyotga erishish maqsadlarida foydalanishning dunyo tabiiy-ilmiy mazarasi insoniyatni asrash ba saqlashga xizmat qilishida namoyon bo‘lishi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tabiiy-ilmiy bilimlarning insoniyat amaliy hayoti mahsuli, fan taraqqiyotining fundamental asosi, dunyo umumiy ilmiy manzarasining tarkibiy qismi sifatidagi ahamiyati ochib berilgan;

Tabiiy-ilmiy bilimlar dunyoni tushunish va o‘zgartirish, yangi ijtimoiy taraqqiyot mexanizmlari va inson umrini uzaytirish texnologiyalarini yaratish, inson tafakkur uslubi chegaralarining demarkasiyasiga erishish va xususiy ilmiy bilimlarni takomillashtirish uslubi sifatidagi ahamiyatini ochib berishga oid turkum adabiyotlarni tayyorlash bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularning respublika va xalqaro miqiyosda o‘tkazilgan konferensiyalarda muhokama qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tabiiy-ilmiy bilimlarning mifologik, diniy, ilmiy manzaralar bilan o‘zaro aloqasi va farqini tushunish, ijobiy yo‘naltirilgan tabiiy-ilmiy bilimlardan ijtimoiy taraqqiyot mezonini va inson manfaatlari himoyasi sifatida foydalanish,

texnogen sivilizatsiyaning megasivilizatsiyaga o'tish omili sifatidagi o'rnini ochib berishga oid ilmiy tadqiqot ishlarining mazmunini boyitishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan konseptual xulosalar, taklif va tavsiyalardan oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishida «Falsafaga kirish», «Ontologiya va bilish nazariyasi», «Tabiatshunoslikning zamonaviy konsepsiyalari» va magistratura mutaxassisligida «Ilmiy tadqiqot metodologiyasi», «Sinergetika» kabi fanlarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi va uning evolyutsiyasi davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

mifologik ba diniy ong darajasidagi tabiiy-ilmiy bilimlarning dunyoni bilish va uni anglashning dastlabki usuli sifatida kelajak taraqqiyotini ta'minlashdagi struktraviy, epistemologik, kognitiv jihatlar, inson tafakkuri mahsuli sifatidagi ontologik va gnoseologik ahamiyatiga oid xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston» teleradiokanali» DM «Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar» muharririyati tomonidan tayyorlangan «Ta'lim va taraqqiyot», «Adabiy jarayon», «Jahon adabiyoti» radioeshittirishlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 23-noyabrda 04-36/1947-son ma'lumotnomasi). Natijalar yoshlarning mifologik bilimlarning ilmiy bilimlar bilan mutanosibligini tushunishi, olam haqidagi har qanday nazariy bilimlar amaliy hayot tajribasiga tayanish mumkinligi haqida tasavvurga ega bo'lishiga xizmat qilgan;

kosmosentrizm g'oyalarining XX asrda koinot haqidagi fundamental bilimlarning shakllanishiga ta'sirining ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy asoslarini ta'minlash, inson umri va sog'lig'ini asrash omili sifatidagi gnoseologik jihatlariga oid ilmiy xulosalardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining VI yo'nalishida belgilangan «Aholining Internetdagi jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga oid chora-tadbirlar» 31-bandi «Buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi, ularning ibratli hayot yo'li hamda jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalar bo'yicha ma'lumotlar bilan xalqaro Internet tarmog'ini boyitib borish»da foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-yil 12-dekabrda 381-son ma'lumotnomasi). Natijalar, aholini ongida tabiiy-ilmiy bilimlarning ijtimoiy taraqqiyot omili sifatidagi rolini to'liq anglash va har qanday kashfiyot va ixtirolardan ijobiy maqsadlarda foydalanishning zarurligini tushunishga xizmat qilgan;

dunyoning mumtoz tabiiy-ilmiy manzarasi mahsuli sifatidagi mexanisizmning termodinamik manzara shakllanishiga ta'siri dunyoning super-xolonom manzarasida, ezoterik ba tabiiy-ilmiy bilimlarning metamorfozasida namoyon bo'lishiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Yoshlar ishlari

agentligining «Yoshlarga oid davlat siyosati targʻiboti oyligi» loyihasini oʻtkazish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 2-martdagi 4-13-21-546-son maʼlumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalari tabiiy-ilmiy bilimlarning genezisi, ilmiy bilim va tafakkur uslubining shakllanishidagi roli, ilmiy qadriyatlarga taʼsirini oshirishga xizmat qilgan;

tabiiy-ilmiy bilimlardan nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, farmakologik mahsulotlarni yaratish, ekologik inqiroz, oziq-ovqat va energiya tanqisligini bartaraf etish, ijtimoiy taraqqiyotga erishish maqsadlarida foydalanishning dunyo tabiiy-ilmiy manzarasi insoniyatni asrash va saqlashga xizmat qilishida namoyon boʻlishiga oid ilmiy xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasining konferensiya, seminar, davra suhbatlari shuningdek madaniy-gumanitar sohalaridagi tadbirlarni tashkil etishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasining 2023-yil 23-yanvardagi 14-07-54-son maʼlumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda tabiiy-ilmiy bilimlarni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari respublika miqyosida oʻtkazilgan 3 ta ilmiy amaliy konferensiya va 3 ta xalqaro ilmiy anjumanlardagi maʼruzalarda muhokama qilingan va aprobatsiyadan oʻtgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta (3 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda), 6 ta xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalar materiallarida tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, 8 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 157 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlarning soni, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi asoslangan.

Dissertatsiyaning **«Dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi genezisi»** deb nomlangan birinchi bobida dunyoning mifologik va diniy manzarasida tabiiy-ilmiy bilimlarning shakllanishi va ularning yangi bilimlarning paydo bo'lishidagi o'rni, qadimgi davr ta'limotlarida tabiiy-ilmiy bilimlarning ontologik jihatlarini ochib berilgan. Muallif fikricha, mifologik dunyoqarashda tabiatdagi barcha narsalarning jonli ekanligiga oid g'oyalar gilozoizm ta'limoti, Koinot tuxumining sinishi Olamning paydo bo'lishiga olib kelganligi haqidagi g'oyalar zamonaviy fanlardagi Katta portlash g'oyasi bilan mutanosibdir. Muallif, A.F.Losevning: «Mif hayot darajasida his qilinadigan va yaratiladigan moddiy reallikdir»⁴² va nemis faylasufi G.Gadamerning: «Mif oqilona tushuntirish mumkin bo'lmagan o'z haqiqatining tashuvchisiga aylanadi»⁴³, degan yondashuviga qo'shilgan. Zero, bu g'oyada mifda olam cheksiz xaosdan iboratligi, unda xudolar olamni va insonni boshqaruvchi vazifasini bajarishi o'z ifodasini topgan. Bu davrda tarixda birinchi marta ratsionalizm ideali – tabiat, inson, kosmosning o'zaro taqazolanganligi, narsalar va jarayonlar stixiyali shakllanganligi g'oyasi hozirgi davrdagi dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi paydo bo'lishiga oid ilmiy dalillar bilan mutanosib. Shu bois, mazkur amaliy omillarning barchasi, bir-biri bilan o'zaro munosabatlarga kirishib, pirovard natijada mifologik ongning parchalanishiga va tabiiy-ilmiy bilimlarning nazariy darajada shakllanishiga olib kelgan. Shu ma'noda muallif V.M.Naydishning: «Arxaika davrida mifologiya bilan uzilish boshlangan, lekin uning yakunlanishiga qadar xali ancha davrlar o'tishi kerak»⁴⁴, degan yondashuviga qo'shilgan. Muallif fikricha, olam, bir tomondan, o'ziga xos insonga bog'liq bo'lmagan qonuniyatlarga ega qandaydir obyekt sifatida, ikkinchi tomondan esa – inson mikrokosm va universal birlik, ya'ni, makrokosm sifatida rivojlanadi, mazkur tarixiy jarayonning asosiy manbasi Gomer dostonlaridir. Darhaqiqat, Gomer dostonlarida qadimgi sinfchilik jamiyatiga oid bo'lgan mifologiya estetik jihatdan qayta ishlanishi bilan bir qatorda dunyoning sababiy bog'lanishlari haqidagi g'oyalar ilgari surilgan.

Dissertatsiyada dastlabki dunyoqarash shakli bo'lgan mifologiya zamirida butun tabiat jonli ko'rinishga ega, deb tasavvur qilingan bo'lsa, diniy dunyoqarash tabiat xudo tomonidan yaratilgan, degan g'oyaga tayanishi asoslangan. Muallif

⁴² Losev A.Ф. Философия. Мифология. Культура. – М.: Наука, 1991. – С. 13.

⁴³ Гадамер Г.Г. Актуальность прекрасного. – М.: Наука, 1991. – С. 94.

⁴⁴ Найдыш В.М. Мифология учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – С. 23.

O.Fayzullayevning «Diniy ta'limotlarda tabiat ruhiy ibtidoining moddiy gavdalanishi deb hisoblangan va Xudo tabiatdan yuqori turadi»⁴⁵, degan yondashuvini tahlil etgan va unda ilgari surilgan dunyoning diniy manzarasida Xudo olamni boshqaradi, lekin inson aqli inkor qilinmaydi, u bunda olamni o'zgartirishga yo'nalgan faoliyatida namoyon bo'ladi, degan fikrning asoslilikini isbotlagan.

Dissertatsiyada dunyo tabiiy-ilmiy manzarasining rivojlanish bosqichlari tasniflangan. Muallif, M.Myullerning dinning asosida qadimgi insonlarning tabiat to'g'risidagi qarashlari yotishiga oid fikrlarini tahlil qilgan (naturalistik nazariya), ba dinlar dastlab qadimgi odamlarning tabiat haqidagi qarashlarining mahsuli ekanligini asoslagan. Qadimgi odamlarning qarashlaridagi dinning astral mohiyati diniy obraz va miflar, samoviy jismlarning harakati orqali namoyon bo'ladi. Muallif, A.Mo'minov, H.Yo'ldoshxo'jayevlarning «Ibtidoiy odamlar nafaqat tabiatning buyuk mavjudliklarini, balki yer yuzining ayrim alohida qismlarini, ya'ni tog'lar va daryolar, adir va o'rmonlar kabilarga ham ilohiy munosabatda bo'lar edilar»⁴⁶, degan yondashuviga qo'shilgan, ruhlarning borligiga ishonish, tabiat kuchlari, hayvonlar, o'simliklar va jonsiz narsalarni jonli deb tasavvur qilish, ajdodlar ruhini ilohiylashtirish animizmning asosiy mohiyatini o'z ichiga olishini asoslagan.

Muallif fikricha, insonlar ayrim tabiat hodisalarida sehr borligi va ular insonlarga g'ayritabiiy ta'sir qilishiga ishongan, insonlarning bir-biriga ta'sir o'tkazish qobiliyati bu magiyadir. Ibtidoiy dinlar tabiat bilan uzviy bog'liqlikda rivojlangan va insonlarning falsafiy fikrlash jarayoniga juda katta ta'sir qilgan. Shu ma'noda, barcha ibtidoiy dinlarda tabiiy-ilmiy bilimlarning ilk kurtaklari iyerarxik ko'rinishda namoyon bo'ladi. Masalan, Qadimgi Misr dinlarida davolash-himoyalash sehrgarligi bugungi tibbiyotning amaliy asosidir. Qadimgi Misrliklarning «Ebers papirusi» nomli asarida dorilar tarkibi va kasallik chaqiruvchi sehrli so'zlar bayon qilingan.

Dissertatsiyada Sharq mamlakatlari, Hindiston, Xitoy, Misr, Xorazm, Baqtriya va So'g'diyona kabi davlatlarda astronomiya, matematika, geometriya, tibbiyot va falsafaga oid tabiiy-ilmiy bilimlar zamonaviy fan taraqqiyotining nazariy asosi ekanligi ochib berilgan.

Muallif fikricha, Qadimgi Sharq va Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiy bilimlar insonlarning tabiatga ratsional munosabatning shakllanishi bilan bog'liq. Sharq mamlakatlarida shakllangan barcha tabiiy-ilmiy bilimlar, masalan, sodda amaliy hisob-kitoblar, astrologik kashfiyotlar va bir qator aniq fanlarning asosiy yangiliklari insonlarning kundalik amaliy ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq xolda rivojlangan. Qadimgi Misrda va Yunonistonda yer o'lchash amaliyoti sifatida geometriya shakllangan. Sharqda amaliy xo'jalik ehtiyojlari uchun qo'llanilgan hisob texnikasi G'arbda «isbotlovchi fan» sifatida rivojlangan.

Dissertatsiyada R.Imomaliyevaning «Antik dunyo yaratgan fan va falsafa o'rtasidagi hamkorlik Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy faoliyatida

⁴⁵ Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – Б. 14.

⁴⁶ Мўминов А., Юлдошхўжаев Ҳ. ва бошқалар. Диншунослик. – Тошкент: Mehnat, 2004. – В. 18.

yangi bosqichga ko'tarilgan»⁴⁷ degan yondashuvning mohiyati hozirgi davrda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy asarlarini o'rganish orqali ochib berilgan. Muallif fikricha, eng dastlabki tabiiy-ilmiy bilimlar asrlar mobaynida avloddan-avlodga o'tib kelgan, odamlarning hayot tajribasi va mehnat faoliyati jarayonida olingan maishiy bilimlar bilan bir qatorda tabiat haqidagi dastlabki qarashlar naturfalsafa negizida shakllangan. Shu nuqtai nazaridan, dastlabki tabiiy-ilmiy bilim kurtaklari naturfalsafa doirasida shakllangan. Demak, matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyotda amaliy hayot mahsuli sifatida rivojlangan tabiiy-ilmiy bilimlar zamonaviy fan taraqqiyotining fundamental asosini tashkil etgan.

Dissertatsiyaning **«Dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi haqidagi konsepsiyalar dialektikasi»** deb nomlangan ikkinchi bobida o'rta asrlardagi Sharq va G'arb faylasuflarining dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasiga oid g'oyalari, fundamental kashfiyot va ixtirolarining dunyo tabiiy-ilmiy manzarasining o'zgarishidagi roli asoslangan. Muallif fikricha, G'arbdan farqli ravishda Sharqda tabiiy-ilmiy bilimlar rivoji diniy aqidalarni inkor etmagan xolda borliq mohiyatini aql va tafakkur vositasida bilishga asoslangan. Sharqda olimlar qadimgi yunon olimlarining ilg'or an'analarini davom ettirgan, ilmiy bilishning yangi usullari va tamoyillarini ishlab chiqqan. Darhaqiqat, Sharq ilmiy tafakkur uslubi barkamol insonni shakllantirish, tabiat sirlarini bilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, o'rta asrlarda Muhammadali Battonining astronomik jadvali, Ibn Yulasni trigonometriya sohasida ulkan yutuqlari va Oy va Quyosh tutilishini kuzatish jadvali, Ibn Nafisni qon aylanishi sistemasini aniqlashi, Ibn al-Xaysamni optika sohasida katta yutuqlari dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi haqidagi tasavvurlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

Dissertatsiyada Markaziy Osiyoning IX-XII asrlardagi madaniy yuksalish bosqichi, Uyg'onish davridagi dunyo tabiiy-ilmiy manzarasining asosiy xususiyatlari, bu davr madaniyatining G'arb davlatlaridan farqi ochib berilgan. Muallif fikricha, bu davrdagi madaniy yuksalish quyidagilar bilan ta'riflanadi:

- koinotning vujudga kelish bosqichlari, olamning tuzilishi, modda va ruhning xususiyatlari kabi umumiy ilmiy-falsafiy g'oyalar fan, ma'rifat, ma'naviyatga intilish ijtimoiy rivojlanishning muhim mezoniga aylanishi;
- inson, koinot Yaratguchining eng oliy mahsuli deb baholanishi.

Dissertatsiyada R.Xayrullayevning: «Avvalo ilm, inson ahli tafakkurini ulug'lash, unga ishonch bildirish, targ'ib-tashviq etish, ularni Yaratguchining eng ulug' va yuksak ijodi deb baholash, ma'rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi deb bilish»⁴⁸ degan g'oyasining ahamiyati asoslangan. Muallif fikricha, Sharq Uyg'onish davrining buyuk faylasuf olimlaridan biri Is'hoq al-Kindiyning tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga qo'shgan xissasi, uning insoniyatning arab dunyosiga ma'lum bo'lmagan aqliy tafakkur

⁴⁷ Imomaliyeva R.M. Tabiatshunoslik falsafasi. – Toshkent: 2009. – B. 13.

⁴⁸ Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар) // Тўпловчи ва масъул муҳаррир: М.М.Хайруллаев // . – Тўлдирилган қайта нашр, – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашр, 2001. – Б. 11.

namunalarini arab tilida bayon qilishi keyingi davrda arab tilidagi tabiiy-ilmiy yo'nalishlarning rivojlanishiga turtki bergan.

Dissertatsiyada IX-XII asrlarda arab xalifalari Horun ar-Rashidning o'g'li Ma'mun tashabbusi bilan Bog'dodda «Bayt ul-hikma» (Donishmandlik uyi)ning tashkil etilishi Markaziy Osiyoning Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy kabi buyuk mutafakkirlarning matematika, geometriya, astronomiya, fizika, tibbiyot kabi bir qator tabiiy fanlarni rivojlantirishga amaliy asos bo'lganligi isbotlangan. Muallif fikricha, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilg'or tabiiy-ilmiy qarashlari keyinchalik G'arb mamlakatlari olimlarining ijodi va ilm-fanining rivojlanishiga sezilarli ta'sir qilgan. Xususan, Forobiyning fanlarning tasnifiga oid qarashlari, keyinchalik falsafadan tabiiy fanlarning demarkatsiyasi, ya'ni ajralishiga ijobiy ta'sir etgan. Muallif Janos Damiyenning «Metod, struktura va Forobiyning kosmologiyasi ichida metod, strukturaning rivojlanishi»⁴⁹ asarida ilgari surilgan Forobiyning kosmologik qarashlarining mohiyatini tahlil qilgan.

Dissertatsiyada al-Xorazmiy va al-Farg'oniyning astronomiya, matematika va geometriyaga doir tabiiy-ilmiy bilimlari keyinchalik dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini shakllanishiga fundamental baza vazifasini bajarganligi, o'rta asrlarning buyuk shoiri Dantening kosmogonik g'oyalari Farg'oniyning «Kitobal-harakat as-samoviya» asari ta'sirida yozilganligi asoslangan. Masalan, Xorazmiyning ilmiy qarashlari zamonaviy matematika, algoritmlar nazariyasi, kibernetika va kompyuter texnologiyalarining nazariy asosidir. Muallif Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning: «U yulduzlarning oralaridagi masofani va ularning hajmini aniqlab chiqqan jadvaldan barcha falakiyotshunoslar, jumladan, yevropaliklar ilmi falak «asoschisi», Kopernik ham foydalangan»⁵⁰ degan fikriga qo'shilgan. Muallif fikricha, uning astronomiyaga oid qarashlari hozirgi davrda astronomiya fanining shakllanishiga juda katta ta'sir ko'rsatgan.

Dissertatsiyada Muso ibn Shokir, uning uch o'g'li, Abu Ma'shar al-Balxiy, Sobit ibn Qurra, Nasiruddin Tusiyning falakiyot ilmini rivojlantirishga qo'shgan xissasi, ularning ilmiy farazlari va ayniqsa, eksperimentga asoslangan nazariy qarashlari keyinchalik Yevropada, xususan, yangi davrlarda buyuk geografik kashfiyotlarga ulkan turtki bo'lganligi asoslangan. Muallif fikricha, Sharq mutafakkirlari qarashlarida diniy ta'limotlar ta'siri, ya'ni xudo g'oyasi ustuvor bo'lsa-da, ular o'zlarining ilmiy izlanishlari natijasida dunyo tabiiy-ilmiy manzarasining o'zgarishiga munosib xissa qo'shganlar. Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlari dunyoning mifologik va diniy manzarasidagi ilohiy kuchlarning tabiiy kuchlar ekanligini isbotlaganlar. Agar qadimgi davr mutafakkirlarining g'oyalarida kosmosentrik g'oyalar, nazariy taxminlar ustuvor bo'lsa, Sharq mutafakkirlari dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasiga oid ilmiy dalillarni ilgari surganlar va tajriba asosida o'z g'oyalarini isbotlaganlar.

Dissertatsiyada o'rta asrlarda G'arbda teosentrizm avj olishini va G'arb mutafakkirlari haqiqiy bilimlarni asoslashga intilishi natijasida dunyoning tabiiy-

⁴⁹ Damien J. Method, Structure, and Development in al-Fârâbî's Cosmology. – Leiden: Brill, 2012. – P. 59.

⁵⁰ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 3-жуз. Ният, ихлос, илм китоби. – Тошкент: Hilol-Nashir, 2020. – Б. 224.

ilmiy manzarasida bir qator o'zgarishga olib kelgani asoslangan. Muallif fikricha, G'arb mutafakkirlari haqiqiy bilim Xudogagina tegishli degan tasavvurni o'zlarining ilmiy izlanishlari natijasida o'zgartirganlar, biroq Xudo g'oyasi ularning tafakkurida asosiy omil sifatida saqlanib qolgan. Shu jihatdan olib qarasak, diniy bilim o'sha davrning asosiy paradigmasi sifatida ilgari surilgan va bu paradigmaning o'zgarishida olimlarning dunyo ilmiy manzarasiga munosabatining o'zgarishi bilan bog'langan. Shuningdek, xususiy va nisbiy bilimlarga muhim ahamiyat berilmaganligini ta'kidlash zarur.

Dissertatsiyada o'rta asrlarda dunyo manzarasida yerdagi barcha narsalar Xudo tomonidan yaratilgan va ularning harakati Xudo tomonidan belgilangan, deb nomlangan aqidalar insonlar dunyoqarashiga singdirilganligi asoslangan. Muallif fikricha, u davrda Xudo olamni anglashning universal quroli sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, bilish faoliyati tushunchalardan va murakkab tushunchalar esa muqaddas oyatlardan paydo bo'lgan. Bunda barcha narsalar Xudoning xohishiga ko'ra amalga oshadi. Aynan bu davrda cherkov nazoratidagi dinga zid barcha narsalar ta'qiqlab qo'yilgan. Natijada, ushbu davrda butun Yevropada tabiiy-ilmiy bilimlar bilan shug'ullanish butunlay inkor qilingan. Shuningdek, barcha fanlar diniy aqidalarga to'liq xolda bo'ysundirilgan. Ammo, shunga qaramay o'sha vaqtlarda asta-sekinlik bilan ilmiy dalillar to'planib, nazariy fikrlash jarayoni shakllangan.

Muallif fikricha, O'rta asrlarda G'arb davlatlarida ilgari surilgan tabiiy-ilmiy g'oyalar diniy qarashlarga muvofiq kelmagani uchun ulardan voz kechilgan. Bu davrda Olam markazida Xudo degan diniy qarash hukmron bo'lgan. Bu davrda alkimyo, astrologiya, magiya va boshqa fanlar rivojlangan. VI-XII asrlardan boshlab Yevropada feodal tuzumning yemirilishi bilan o'zining qoloq agrar xo'jaligini va savdo aloqalarini yo'lga qo'yishda, astronomiya bo'yicha amaliy bilimlarga ehtiyoj oshgan. G'arbda qadimiy an'analardan muayyan darajada uzoqlashish va yangi tabiiy-ilmiy bilimlar dunyo haqidagi tasavvurlarning o'zgarishiga ta'sir etgan.

